

GAZ SANOATI KORXONALARINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li

Mustaqil izlanuvchi PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16606361>

Bugungi kunda energetika sohasi, jumladan, gaz sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash iqtisodiy taraqqiyot va strategik xavfsizlikning muhim omilidir. Ammo mavjud baholash ko'rsatkichlari ushbu korxonalarning kompleks moliyaviy holatini to'liq ifodalashga doimo imkon bermaydi. Shu sababli, indikatorlar tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korxonalar faoliyati sharoitida moliyaviy barqarorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Global iqtisodiy o'zgarishlar, raqobat kuchayishi va texnologik yangilanishlar korxonalarning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy barqarorlik, asosan, korxona aktivlari bilan majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, sarmoyadorlar uchun jozibadorlikni oshirish va moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish orqali erishiladi. Moliyaviy barqarorlik esa aktivlar va majburiyatlarning muvozanatini saqlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy xavflarni samarali boshqarish orqali ta'minlanadi.

BMTning hisobotida barqaror rivojlanish tushunchasiga "Barqaror rivojlanish – bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ham o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini saqlab qolishdir." deya ilk bor rasmiy ravishda ta'riflangan.

Barqarorlik konsepsiyasi zamonaviy moliyaviy vositalarni takomillashtirish, faoliyat mexanizmlarini yangilash va ularning moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan. Moliyaviy barqarorlik deganda xo'jalik yurituvchi subyektning ichki va tashqi omillarga qaramasdan o'z moliyaviy faoliyatini barqaror, uzluksiz va samarali olib borish tushuniladi. Mazkur tushuncha iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun dolzarb bo'lib, u tijorat banklari, sanoat korxonalari, davlat byudjeti va xalqaro moliyaviy tizimlar uchun birdek muhimdir. Moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslarning holatini anglatadi, bu yerda aktivlar va majburiyatlar o'zaro muvozanatlangan ichki va tashqi muhitda, moliyaviy qobiliyatni saqlab qolish va investorlarni jalb qilish, hamda boshqariladigan xavf chegarasida faoliyat yuritishni o'z ichiga oladi. Bunday ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning qarzlarini to'lashga tayyorligini, moliyaviy mustaqilligini va o'z va qarzga olingan mablag'larni samarali boshqarishni baholash imkonini beradi.

Moliyaviy barqarorlik nazariyasi iqtisodiy fanlarda turli yondashuvlar va konseptual asoslar orqali shakllangan bo'lib, u makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tahlillar, risklarni boshqarish, tizimli barqarorlik va moliyaviy inqirozlar oldini olish kabi ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Quyida bu nazariyaning asosiy yondashuvlari keltirilgan:

Makroiqtisodiy barqarorlik – davlat iqtisodiyotining moliyaviy mustahkamligi, inflatsiya va deflyatsiyaning oldini olish, davlat qarzini nazorat qilish.

Mikroiqtisodiy barqarorlik – korxonalarning moliyaviy tahlili, likvidlikni saqlash, kapital tuzilishini optimallashtirish.

Bank tizimi barqarorligi – tijorat banklari va moliyaviy institutlarning kreditlash, risklarni boshqarish va investitsion barqarorligi.

Amerikalik James Van Horne o'zining "Financial Management and policy" (Moliyaviy boshqaruv va siyosat) kitobida siyosatni boshqarish uchun kapitalni boshqarish, likvidlik va

risklarni muhimligini ta'minlaydi. Uning fikriga ko'ra, qobiliyatlilik faollar va boshqaruvlar o'ziga xos balansni saqlashga bog'liqlikligini ta'kidlab o'tilgan.

Moliyaviy barqarorlikning asosiy tamoyillari – aktivlar va majburiyatlar muvozanatini saqlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy xavflarni samarali boshqarish – barqaror rivojlanishning barcha sohalarida ishonchli iqtisodiy muhit yaratishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu tamoyillar orqali davlat va korporatsiyalar iqtisodiy inqirozlardan saqlanib, uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashlari mumkin.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari – miqdoriy (likvidlik, rentabellik, qarz yuklamasi va boshqalar) va sifatli (boshqaruvning samaradorligi, risklarni boshqarish tizimi, innovatsiyalar va shaffoflik) parametrlar tizimi orqali baholanadi. Quyidagi jadvalda ko'rsatilgan miqdoriy parametrlar korxonaning moliyaviy holatini raqamli ko'rsatkichlar orqali o'lchashga asoslangan indikatorlar hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikning parametrlar tizimi

№	Miqdoriy parametrlar	Sifatli parametrlar
1	Korxonaning aktiv va passivlari, daromad va xarajatlar tuzilishi	Korxonaning boshqaruv tizimi
2	Qarz va kapital tuzilishi	Risklarni boshqarish qobiliyati
3	Likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili	Innovatsion salohiyati va regulyatorlarga rioya qilish darajasi

Ularning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Raqamli ifodalanishi - miqdoriy parametrlar aniq raqamlar bilan ifodalanadi. Masalan, daromad, foyda, xarajatlar, aktiv va passivlar miqdori kabi ko'rsatkichlar.

Obyektivlik - hisob-kitob va moliyaviy hisobotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida hisoblanadigan parametrlar bo'lgani uchun, ularning natijalari subyektiv baholardan qat'iy nazar aniq va ishonchli bo'ladi. O'lchov birliklari – ko'rsatkichlar odatda pul birliklarida (masalan, so'm, dollar, yevro) ifodalanadi, shuningdek, nisbatlar (rentabellik, likvidlik ko'rsatkichlari) sifatida ham olinishi mumkin.

Trendlari aniqlash imkoniyati - miqdoriy parametrlar vaqt davomida kuzatilib, o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi. Bu korxonaning o'sishi yoki kamayishi, risklar va imkoniyatlarni baholashda muhimdir.

Solishtirish imkoniyati - raqamli ko'rsatkichlar yordamida korxona o'zining ichki ko'rsatkichlarini vaqt o'tishi bilan yoki boshqa korxonalar bilan solishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu tahliliy qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi.

Aniqlik va o'lchovlilik - moliyaviy hisobotlar asosida hisoblanadigan miqdoriy parametrlar yuqori aniqlikka ega bo'lib, korxonaning moliyaviy holatini aniq aks ettiradi.

Sifatli parametrlar korxonaning moliyaviy barqarorligini faqat raqamlar bilan emas, balki uning boshqaruv tizimi, risklarni boshqarish, innovatsiyalar, korporativ madaniyat va boshqa noquantitativ omillar orqali baholashni taqozo etadi. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

Boshqaruv tizimi samaradorligi. Korxonaning strategik qarorlar qabul qilish jarayoni, rahbarlik sifatleri, ichki nazorat tizimlari va operatsion jarayonlarning samaradorligi baholanadi. Bu parametr korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan biridir.

Risklarni boshqarish qobiliyati. Moliyaviy inqirozlar va bozor o'zgarishlariga qarshi qanday choralar ko'rilayotgani, xavflarni aniqlash, tahlil qilish va ularni minimallashtirish bo'yicha qabul qilingan strategiyalar baholanadi.

Innovatsion imkoniyatlar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlari va zamonaviy yechimlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi.

Gaz sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimi muhim analitik vosita hisoblanadi. Ushbu tizim orqali korxonaning moliyaviy holati, qarzga bog'liqlik darajasi, to'lovga layoqatliligi, foydalilik darajasi va kapital tarkibi holati aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Biroq amaldagi ko'rsatkichlar tizimi ayrim hollarda gaz sanoati xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi, natijada baholashda noaniqlik va cheklovlar yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gaz sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni aniqlashda klassik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda tarmoqqa xos qo'shimcha indikatorlarni ham qo'llash zarur. Xususan, investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligi, tabiiy gaz zaxiralarining mavjudligi, infratuzilma amortizatsiyasi darajasi kabi tarmoqqa xos ko'rsatkichlar tizimga kiritilishi kerak. Shuningdek, muqobil moliyalashtirish manbalari (masalan, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik moliyaviy modellari) bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham moliyaviy barqarorlik bahosini to'ldiruvchi muhim mezon sifatida taklif qilinmoqda. Amaliy jihatdan, takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish orqali gaz sanoati korxonalarining moliyaviy xavfini oldindan aniqlash, moliyaviy oqimlarni barqaror boshqarish va investitsiya qarorlarini asosli qabul qilish imkoniyati oshadi. Bu esa umumiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

INNOVATIVE
ACADEMY